

PIRIMQUL QODIROVNING "QORA KO'ZLAR" ROMANIDA INSONIY QADRIYATLAR TALQINI.

Jamilova Norjon

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti talabasi

G.Raximova

Ilmiy rahbar, O'z-Fin Pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zining sodiq kitobxonlariga ega yozuvchi Pirimqul Qodirovning adabiy merosida asosiy o'rinlardan birini egallagan "Qora ko'zlar" romanining asosiy g'oyasi, badiati va asardagi insoniy qadriyatlar talqini haqida.*

Kalit so'zlar: *Insonparvarlik, qora ko'z, kirdikor, cho'ponlik, Avaz, Hulkar, Ortiq, tuyg'u, inson taqdiri, mehr-muhabbat, sadoqat.*

Inson-ongli mavjudot. Hayoti davomida turli sinovlarni, voqealarni boshidan kechiradi. O'ning yarmi qorong'u, yarmi yorug' bo'lgani kabi, inson hayoti ham xuddi shunday qorong'ulik va yorug'liklardan iborat. Inson qalbi mehr-muhabbatga, ezgulikka boy, sevib-sevilish tuyg'ulariga ega. Ikki inson o'rtasidagi muhabbat har qanday qiyinchiliklarni, har qanday o'g'ir vaziyatlarni yengishga qodir.

O'z sevgisi uchun kurashgan, qanday vaziyat bo'lmasin, bir-biriga sodiq yoshlarning muhabbatini Pirimqul Qodirov o'zining "Qora ko'zlar" romanida gavdalantirdi. O'z muhabbatiga sodiqlik, bir-biriga bo'lgan hurmat kabi insoniy qadriyatlar romanga o'zgacha ko'rk bag'ishlagan. Asarda hayotning botiniy qatlamlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish, inson taqdirida ro'y bergan ziddiyat va holatlarni, belgilarni umumlashtirish badiiy tafakkur tarozisiga qo'yish, inson xarakterini uning ruhiy holati, his tuyg'usi orqali ochib berish uslubi mavjud.

Adibning otasi umrining katta qismini tog'larda cho'ponlik qilib o'tkazgan va bo'lajak yozuvchining xotiralarida archa o'rmonlari, daryo qoyalari va keskin qiyaliklardagi cho'ponning og'ir mehnati o'rnatib qoladi-bularning bari keyinroq uning „Qora ko'zlar“ romanida ifodalanadi. Pirimqul Qodirovning lavozim suiste'moliga duch kelgan tog' cho'ponlarining dramatik hodisalariga bag'ishlangan „Qora ko'zlar“ romani kitobxon olqishiga sazovor bo'lgan. Roman rus va Litovsk tillariga o'girilib, Moskva hamda Kaunasda chop etiladi.

Asarda inson taqdiri va inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda insonning qadr-qimmatini uchun kurash, xo'jalikni boshqarishda madaniyat va ma'naviyatning dolzarb masala ekanligiga guvoh bo'lasiz. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlarini, mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr bardoshi haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangan uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi.

„Qora ko'zlar” romanidagi Avaz va Ortiq kabi aka-ukalar, Hulkar, Suyuma, Zamonali, Cho'lponoy, Xolbek, Jannatxon, Davlatbekov, Mansurov kabi obrazlarni yoritib bergan. Ayniqsa Avaz va Hulkar obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Ularning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan qahramonliklari, eng og'ir damlarda ham qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch topa olishlari, tuganmas mehr va muhabbatga ega ekanliklari bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. Avazning halol va adolatli yigit ekanligi, lekin akasi Ortiqning yolg'onchiligi, birovning haqqiga ko'z olaytirishi, harom luqma bilan kun kechirishi, laganbardorligi kitobxonga aka-ukaning farqli jihatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Hulkarning haqiqiy o'zbek ayoliga xos jasorati, odamlarning gapiga quloq solmay o'z turmush o'rtog'i Avaz bilan cho'ponlik qilib yurishi, mehr-muhabbatli, sadoqatli ekanligi bilan o'sha davrdagi ayollardan farq qiladi. Xolbekning asar so'ngida ijobiy tomonga o'zgarishi, unda insoniylik tuyg'ularining kech bo'lsada uyg'onganligi kitobxon qalbida Xolbekga nisbatan iliq tuyg'ular uyg'otadi. Avaz va Hulkarning bir-biriga bo'lgan mustahkam sevgisi, sadoqati, o'zaro hurmati, Hulkarning o'z yoriga itoatkorligi insoniy qadriyatlarini namoyon qiladi.

Avazning naqadar halol inson ekanligini asardagi quyidagi voqeadan bilsak bo'ladi: Gazetadagi surat tagida " Avaz Qambarov har yuz soliqdan bir yuz o'ttiztadan qo'zi olgan, qo'zilarining tirik vaznini ellik besh killogacha yetkazgan" deb yozilgan yozuvga Avaz e'tiborsiz bo'lmadi. O'zi haqida yozilgan yolg'on maqtovlarni o'ziga munosib bilmagan Avaz o'zbek yigitlariga xos bo'lgan or-nomusini, yigitlik sha'nini birovning qo'liga o'yinchoq qilib qo'ymadi.

Davlatbekov aytgan "rekordchi cho'pon" degan so'zlar endi Avazga "yolg'onchi cho'pon" deganday eshitilib ketdi. U gazetani ko'targancha tez orqasiga qaytdi. Shu paytda Avazning yigitlarga xos mardonavor harakati va shijoati sababli, Davlatbekovning Avazni o'z yolg'oniga sherik qilish uchun barcha qilgan urinishlari besamar ketdi.

Avaz halolligi, oqko'ngilligi, o'z kasbiga, o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbati sababli xalqining oldiga yolg'on gapira olmadi. U bor haqiqatni, gazetadagi barcha so'zlar soxta ekanligini aytdi. G'iyosiddinov bilan Davlatbekovning asl yuzini ochdi. Lekin G'iyosiddin va Davlatbekov ayyorlik qilib, bu hodisani muxbirning xatosi deb o'zini oqladi, mug'obirligi tufayli vaziyatdan chiqqa oldi. "Guruh kurmaksiz bo'lmagani" kabi jamiyat orasida ham ikkiyuzlamachi, mug'ombir, halol va oliyjanob insonlar mavjud.

Xullas, asardagi cho'ponlik qiyinchiliklari ko'p kishilarning boshidan o'tgan. Ularning xalqqa ko'rsatgan jasoratlari, bitta qo'yning hayotini saqlash uchun o'z jonini qurbon qilishga tayyorligi, o'z ishini sidqidildan bajarganligi, har qanday vaziyatda ham o'zini emas, xalqining taqdirini o'ylaganligi, faqat adolat yo'lini mahkam tutganligi haqiqiy o'zbek farzandiga xos fazilatdir.

Asarning nomi hisoblanmish „Qora ko'zlar”(asar yarim asr ilgari yozilgan bo'lsada) aynan bugun yozilgandek, hozirgi davr insonlariga qaratila aytilgandek tuyuladi. Yozuvchi shu jumalari millatlararo yuz berayotgan qarama-qarshiliklar asnosida jabr ko'rayotgan insonlarning barchasi, darhaqiqat, „qora ko'z” ekanini ta'kidlaydi. Adibning o'zi shu asari haqida ishlar ekan, „qora ko'zlar” jumlasini xalq orasida halol mehnati bilan kun ko'radigan soda, samimiy odamlarga nisbatan ishlatadi. „Mana shu qora ko'zlar borki, biz bormiz”, -deydi.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, asarda inson hayoti, hayot qiyinchiliklari, chorvachilik va dehqonchilik sohalaridagi noto'g'ri islohotlarning, adolatli insonlar tomonidan fosh etilishi, faqat o'zini o'ylab ya'ni „o'zim“ deb yashayotgan g'alamis insonlarning kirdikورونا ishlari har bir kitobxonga ta'sir o'tkazib qolmaydi.

Asarni o'qir ekansiz, adib uchun insonning qadr-qimmatini uchun kurash, xo'jalikni boshqarishda madaniyat, ma'naviyat -ning dolzarb masala ekanligiga guvoh bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. T., 2010
2. Imomov B. O'zbek sovet bolalar adabiyoti yuksalishi yo'lida. T.: Y.g., 1973
3. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. T: Fan. 1984
4. Niyoziy H.H. Mukammal asarlar to'plami . 4 tomlik, 2-tom Pedagogik risolalar. T.: Fan, 1980.
5. bilimlar.uz
6. ziyouz.uz..
7. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). - Samarqand: SamDU nashri. 2022. - 303 b.